

# Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-iyul

## Raqamlar:


- 2018 yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi - 3759,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 125,8 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1189,2 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xima-xil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, viloyatimizda 2018 yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 3759,9 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, shaxsiy va boshqa xizmatlarda kuzatilmoqda.

## 2018 yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar tarkibi, %




**2018 yil yanvar-iyul oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami xizmatlar :	3759,9	106,4	100,0
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	245,6	114,2	6,5
moliyaviy xizmatlar	422,1	125,8	11,2
transport xizmatlari	858,4	101,7	22,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	828,5	102,0	22,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	115,4	105,1	3,1
savdo xizmatlari	1284,7	102,2	34,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	121,6	103,5	3,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	90,8	117,6	2,4
sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	39,1	109,6	1,0
ijara xizmatlari	108,6	112,0	2,9
kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	137,0	101,0	3,7
shaxsiy xizmatlar	145,1	100,4	3,9
me'morchilik,muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va taxlit sohasidagi xizmatlar	41,8	108,4	1,1
boshqa xizmatlar	149,7	116,7	4,0

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush - savdo xizmatlari (34,2 %), transport xizmatlari (22,8 %), moliyaviy xizmatlar (11,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,5 %), shaxsiy xizmatlar (3,9 %), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (3,7 %) tashkil qildi.


Xizmatlar jamiyat hayotining muhim sohasi bo'lib, hayot darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Bugungi kunda xizmat amaliyotida xizmat faoliyatini tashkillashtirishning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari belgilangan.

### **Xizmatlar ishlab chiqarish hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm**



2018 yil yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (125,8 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (117,6 %), boshqa xizmatlar (116,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (114,2 %), ijara xizmatlari (112,0 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (109,6 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarda oshdi.

### **2018 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Xizmatlar sohasida xizmat hajmining o'shishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi, jumladan: bozorda yangi turdagи xizmatlarning paydo bo'lishi, masalan: kredit kartalari orqali to'lovlar, Internet savdo, yangi savdo markazlari,

mehmonxonalarning tashkil etilishi, ta'lif xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanloving kengayishi shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari umumiylajmiy hajmida eng katta ulushni oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (92,8%) ustunlik qiladi. Yashash xizmatlari ulushi 7,2 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish xizmatlari tarkibi, %



**2018 yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %**